

**O‘zbekiston**  
**Metama’lumot**  
**Atmosfera havosiga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar**

**0. Asoslar**

**0.1 Qonuniy muhit**

**0.1.1 Statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik**

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Davlat statistika qo‘mitasi 2002 yil 12 dekabrda tasdiqlangan va 2012 yilda o‘rgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan “Davlat statistikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun bilan davlat statistikasini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017 yil sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beadigan yangi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”i tasdiqlandi, ushbu nizom Davlat statistika qo‘mitasi Milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas’ul va ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, analiz qilish va tarqatish bo‘yicha asosiy organ bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistik uslubiyat bilan ta’minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika qo‘mitasi, statistika ishlarini olib boruvchi boshqa davlat statistika organlari singari davlat statistika hisobotlarini, ma’muriy hisobotlarni va davlat statistika kuzatuvlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlarni, shuningdek hisobotlaridagi tushuntirishlarni o‘z vakolatlari doirasida boshqa organlardan ta’lab qilib olish huquqiga ega.

2017 yil 12 sentabrdagi 5054 sonli Prezident topshirig‘iga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma’lumotlar XVJning kengaytirilgan umumiy ma’lumotlar tarqatish tizimi (k-UMTT) doirasiga to‘g‘ri keladigan va muvofiqlashgan bo‘lishi kerak.

**0.1.2 Ma’lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi va muvofiqlartirish**

### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 9-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari Davlat statistikasi ishlari dasturini bajarishda davlat statistikasi organlariga ko‘maklashishi shart bo‘lgan boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar bilan statistika ishlarini hamkorlikda bajaradi. Davlat statistikasi organlari o‘zlarining vakolat doirasiga kiruvchi ayrim ishlarning boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar tomonidan bajarilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yadi. Boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq davlat statistika kuzatuvlarini, shuningdek davlat statistikasi vakolatli organi bilan kelishilgan shakllarda idoraviy statistika kuzatuvlarini o‘tkazadi. Idoraviy statistika kuzatuvlarining ma‘lumotlari davlat statistikasi vakolatli organiga uning so‘roviga binoan taqdim etiladi.

Bundan tashqari, statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organi huzuridagi davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi muammolari bo‘yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi. Statistika kengashi davlat statistikasining ayrim masalalarini ko‘rib chiqish uchun ekspert komissiyalari tayinlashi mumkin. Statistika kengashi va ekspert komissiyalarining yig‘ilishlariga ekspertlar taklif etilishi, yig‘ilishlarda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar vakillarining davlat statistikasi masalalari bo‘yicha axborotlari eshutilishi mumkin. Statistika kengashining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

#### 0.1.3 Alohida muxbirlarning ma‘lumotlari maxfiyligi

### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari yakka tartibdagi statistika ma‘lumotlarining maxfiyligini, davlat sirlari va yuridik shaxslarning tijorat sirlariga rioya etilishini, jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning egasi mavhumlashtirilishini ta‘minlashga majburdirlar. Bundan tashqari 2017 yil sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”ga asosan, (13-band, §15) Davlat statistika qo‘mitasi maxfiylik masalalarini hal qilish bo‘yicha xavfsizlik choralarini ko‘radi, shu jumladan bank sirlarini ham (13-band, §11). Nihoyat, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat statistika sohasidagi faoliyatiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma‘lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Davlat statistika qo‘mitasining har bir xodimi uni bunday ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o‘z ichiga olgan shartnomaga qo‘l qo‘yishi shart.

#### 0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi sifat menejmenti va metama‘lumotlar boshqaruvini

ta'minlaydigan statistika biznes-jarayonlarini ifodalovchi BMT ning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (UNECE) Statistika biznes jarayonlar umumiy modelini yuritadi.

Respondentlarga ma'lumot yetkazib berish maqsadida Davlat statistika organlari o'z vakolatlari doirasida moliya, bojxona, soliq organlari, banklar va boshqa idora va xizmatlar, yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalari filiallaridan, jismoniy shaxslardan, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan Davlat statistika kuzatuvlarini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rashga va olishga, shuningdek, statistik maqsadlarda foydalaniladigan hisobotlarga tushuntirishlar olishga huquqiga ega.

Bundan tashqari, davlat statistikasi korxonalar va muassasalar statistik ma'lumotlarining ishonchliligini tekshiradi, olingan statistik ma'lumotlarni to'liqligi ob'ektivligini ekspertizadan o'tkazadi va buzilganligi aniqlangan hollarda ularni to'g'rilash uchun zarur ko'rsatmalar beradi va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritadi.

## 0.2 Resurslar

### 0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnik, elektron hisoblash va moliyaviy resurslar (tavsiya etiladigan kategoriya)

Markaziy apparatda atmosfera havosiga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar to'g'risidagi axborotlarni shakllantirish ishlari 2 nafar, hududiy statistika boshqarmalarida – 1 nafar, tumanlar statistika bo'limlarida ham – 1 nafar xodim tomonidan amalga oshiriladi.

Ekologiya statistikasi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun xodimlar soni yetarli.

Boshqarmaning barcha xodimlari iqtisod va qishloq xo'jaligi sohasida oliy ma'lumotga ega. Boshqarma xodimlari kadrlarni qayta tayyorlash va statistik tadqiqotlar markazida muntazam ravishda o'z malakalarini oshirib boradilar.

Boshqarma yetarli miqdordagi kompyuterlarga ega bo'lib, har bir xodim alohida o'zlariga birlashtirib berilgan, lokal tarmoqqa ulangan, muntazam ravishda dasturiy ta'minot yangitlanib turadigan kompyuterda ishlaydi.

Berilayotgan moliyaviy resurslar qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha davlat statistika ishlari dasturida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun yetarli.

## 1. Yaxlitlik

### 1.1 Kasbiy mahorat

#### 1.1.1 Statistikaning xolisligi

##### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari aniqlik, xolislik va beg'arazlikdir. Bundan tashqari, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomi”da (13-modda, §6) Davlat statistika qo'mitasining prinsiplari beg'arazlikni ta'minlashi belgilanga.

### 1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika ma'lumotlaridan davlat manfaatlarini ko'zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni xabardor etish, bunday ma'lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun foydalaniladi. Davlat statistikasi organlari yuridik shaxslardan, ularning vakolatxonalari va filiallaridan, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olgan birlamchi statistika ma'lumotlari faqat jamlanma statistika ko'rsatkichlarini tayyorlashda statistika maqsadlarida ishlatiladi hamda jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e'lon qilinadi. Tarkibida davlat siri va tijorat sirlari bo'lgan statistika ma'lumotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

### 1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

## 1.2 Shaffoflik

### 1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish nizomi va tartibini oshkor qilish

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 4-moddasiga binoan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkoralikdir. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun va qarorlarda keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, “Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonun (2002 yil) va Qo'mitaning 368-sonli qarori veb-saytga ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida ham chop etiladi va normativ-huquqiy xujjatlar bazasiga (norma), shuningdek Adliya vazirligining [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz) manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud.

### 1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlarga e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hukumat Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlarini e'lon qilinish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda Davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 5-moddasi). Faqat qo'mita Raisi statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

### 1.2.3 Statistik ma'lumotlarni belgilash

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Jamiyatga e'lon qilinayotgan ma'lumotlar ma'lumot ishlab chiqaruvchi agentlik tomonidan aniq belgilanadi (logotip va izohlar).

### 1.2.4 Uslubiyatlar, dastlabki ma'lumotlar va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida avvaldan xabar berish.

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga jiddiy o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamaotchilikni oldindan ogohlantiradi. Davlat statistika qo'mitasi o'z veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi.

### 1.3. Axloq me'yorlari

#### 1.3.1 Xodimlarning axloqi bo'yicha ko'rmatma

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimiga tayinlanayotganda majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

## 2. Metodologiya

### 2.1 Konsepsiya va ta'riflar

#### 2.1.1 Konsepsiya va ta'riflar (talab etiladigan kategoriya)

Atmosfera havosiga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar to'g'risidagi axborotlar atrof muhit holatini baholash maqsadida yig'iladi

Atmosfera havosiga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi korxonalari uchun ifloslantiruvchi manbalarni inventarizatsiya qilish va atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarni me'yorlashtirish bo'yicha yo'riqnoma bo'yicha yillik asosda shakllantiriladi.

Atmosfera havosiga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar hajmlari hosil bo'lgan ifloslantiruvchi moddalar miqdoridan, jami ushlab qolingan va zararsizlantirilgan hajmini chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Mazkur ko'rsatkich ShEKMO (Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo mamlakatlari) uchun asosiy ekologik ko'rsatkichlar ro'yxatiga kiradi (Ekologik ko'rsatkichlarni ShEKMO mamlakatlariga tadbqiq qilish bo'yicha qo'llanma. 1-qism).

### 2.2 Statistik qamrov

#### 2.2.1 Statistik qamrov (talab etiladigan kategoriya)

##### 2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston tRespublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.

Ekologiya statistikasi bo'yicha ko'rsatkichlarning shakllantirilishi atmosfera havosini ifloslantiruvchi statsionar manbalarga ega, toksik va notoksik chiqindilar hosil qiladigan tashkilotlar bo'yicha amalga oshiriladi.

#### 2.2.1.2 Statistika qamrovdan istisnolar

Istisno yo'q

#### 2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Ko'lankali iqtisod hisobga olinmaydi.

### 2.3 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish

#### 2.3.1 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

### 2.4 Hisobga olish asosi

#### 2.4.1 Baholash (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

#### 2.4.2 Hisobga olish asosi (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

#### 2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartiblari (tavsiya etiladigan kategoriya)



### 3. Aniqlik va ishonchlik

#### 3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar

##### 3.1.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish dasturlari (talab etiladigan kategoriya)

Atmosfera havosiga chiqarilayotgan chiqindilar to'g'risidagi ma'lumotlarning shakllantirilishi uchun axborotlar manbai birlamchi davlat statistika hisobotlari ma'lumotlari hisoblanadi.

- atmosfera havosiga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar atmosfera havosini ifloslantiruvchi stasionar manbalarga ega, toksik va notoksik chiqindilar hosil qiladigan tashkilotlar uchun davlat statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida yilda bir marta shakllantiriladi.

##### 3.1.2 Ta'riflar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, baholashlar va boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish davri (tavsiya etiladigan kategoriya)

Chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar hajmlari to'g'risidagi statistik axborotlar barcha atmosfera havosini ifloslantiruvchi stasionar manbalarga ega, toksik va notoksik chiqindilar hosil qiladigan tashkilotlar tomonidan davlat statistikasi organlariga taqdim etiladi.

##### 3.1.3 Boshlang'ich ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi (tavsiya etiladigan kategoriya)

Axborotlarni tayyorlash qat'iy ravishda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar yilda bir marta, hisobot davridan keyin 5 oydan ko'p bo'lmagan davrda qayta ishlanadi.

#### 3.2 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash

##### 3.2.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Tashkilotlardan olingan hisobot ma'lumotlari Davlat statistika qo'mitasida har tomonlama nazoratdan o'tadi. Axborotlarda xatoliklar aniqlangan hollarda sub'ektlar bilan aniqlik kiritiladi.

#### 3.3 Statistik usullar

##### 3.3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador kategoriya sifatida talab etiladigan kategoriya)

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan ekologiya bo'yicha davlat statistika hisobotlari statistika organlariga yilda bir marta taqdim etiladi, shuning uchun oraliq ma'lumotlarni solishtirish imkoniyati mavjud emas.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan ekologiya bo'yicha davlat statistika hisobotlari statistika organlariga yilda bir marta taqdim etiladi, shuning uchun oraliq ma'lumotlarni baholash imkoniyati mavjud emas.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi farqlarni va boshqa muammolarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Chiquvchi statistik ma'lumotlardagi farqlar o'rganilib, hisobot davridagi ma'lumotlarni o'tgan yil natijalari bilan solishtirish, katta farqlar aniqlanganda ularning sabablarini o'rganish va aniqlik kiritish ishlari amalga oshiriladi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Yillik hisobot ma'lumotlari qayta ishlanadi, tahlil qilinadi, umumlashtiriladi, zarur hollarda sub'ektlar bilan aniqlik kiritiladi va 5 oy ichida rasmiy ravishda chop etiladi.

4. Amaliy yaroqlilik



#### 4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

##### 4.1.1 Davriylik (talab etiladigan kategoriya)

##### 4.1.2 O'z vaqtidaligi (talab etiladigan kategoriya)

Atmosfera havosiga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar to'g'risidagi yillik ma'lumotlar davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda, hisobot davridan keyingi 5 oydan kechiktirmasdan chop etiladi.

#### 4.2 Qiyosiylik

##### 4.2.1 Ichki qiyosiylik (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Statistik qatorlar ichki taqqoslash bilan tavsiflanadi.  
Statistik qatorlar tasdiqlanganidan va tarqatilganidan keyin qayta ko'rib chiqilmaydi.

##### 4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

##### 4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

#### 4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

##### 4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali (talab etiladigan kategoriya)

Atmosfera havosiga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar to'g'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va chop etish davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

##### 4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash (talab etiladigan kategoriya)

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni tahlil qilish va o'rganish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Atmosfera havosiga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar to'g'risidagi yakuniy ma'lumotlar statistik byulleten, jadval va to'plamlar ko'rinishida tarqatiladi.

## 5. Qulayligi

### 5.1 Ma'lumotlar

#### 5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish shakli (talab etiladigan kategoriya)

Atmosfera havosiga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar to'g'risidagi yakuniy ma'lumotlar foydalanuvchilarga statistik byulleten, jadval va to'plamlar ko'rinishida yetkazib beriladi.

#### 5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari (talab etiladigan kategoriya)

##### 5.1.2.1 Bosma shaklida – Yangi nashrlar

Atmosfera havosiga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar to'g'risidagi yakuniy ma'lumotlar statistik byulleten, jadval va to'plamlar ko'rinishida tarqatiladi.

##### 5.1.2.2 Bosma shaklida – Haftalik byulletenlar

Yo'q

##### 5.1.2.3 Bosma shaklida – Oylik byulletenlar

##### 5.1.2.4 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Yo'q

##### 5.1.2.5 Bosma shaklida – Boshqalar

Jadvallar, foydalanuvchilarning maxsus so'rovlariga asosan

#### 5.1.2.6 Elektron shaklda – Onlayn byulletenlar yoki ma'lumotlar

2018 yil uchun tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'rmonchilik va ovchilikning asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 apreldagi PQ-4273-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi ochiq axborotlar portaliga joylashtiriladi.

#### 5.1.2.7 Elektron shaklda – Boshqalar

Ma'lumotlar har yili elektron jadvallar, byulleten va to'plamlar ko'rinishida davlat boshqaruvi organlari va boshqa foydalanuvchilarga taqdim etiladi.

#### 5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining «Davlat statistikasi to'g'risida»gi Qonuniga va boshqa me'yoriy hujjatlarga mos ravishda tarqatiladi.

### 5.2 Metama'lumotlar

#### 5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, hisobga olish asosi, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlarni tarqatish (talab etiladigan kategoriya)

«Tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'rmonchilik va ovchilikning asosiy ko'rsatkichlari» byulleteni chop etiladi.

## 9. Rejalar

### 9.1 Oxirgi

#### 9.1.1 Takomillashtirish rejaları – Oxirgi takomillashtirishlar

Davlat statistika kuzatuvlari shakllarini takomillashtirish.

### 9.2 Umumiy

#### 9.2.1 Takomillashtirish rejaları – Qisqa muddatli

Ekologiya bo'yicha davlat statistika kuzatuvlari shakllarini takomillashtirish.

### 9.2.2 Takomillashtirish rejalari – O‘rta muddatlilari

Atmosfera havosiga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar bo‘yicha axborotlarni tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portaliga joylashtirish.

### 9.3 Moliyaviy

#### 9.3.1 Takomillashtirish rejalari – Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish davlat statistika ishlari dasturi doirasida ta’minlangan.

#### 9.3.2 Takomillashtirish rejalari - Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar– O‘rta muddatli

Moliyalashtirish davlat statistika ishlari dasturi doirasida ta’minlangan.

## Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

<b>Aloqa bog'lash uchun shaxs <u>1</u></b>	
<i>F.I.O.:</i>	Gulomov Shovkat
<i>Lavozim:</i>	Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi boshlig'i
<i>Bo'linma:</i>	Qishloq xo'jaligi va ekologiya
<i>Bo'lim:</i>	
<i>Departament:</i>	Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi
<i>Idora:</i>	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
<i>Manzil (1 satr):</i>	
<i>Manzil (2 satr):</i>	
<i>Shahar/region:</i>	Toshkent shahri Toshkent shahri
<i>Mamlakat:</i>	O'zbekiston Respublikasi
<i>Pochta indeksi:</i>	
<i>Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam</i>	998 998 998
<i>Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam</i>	998 998 998
<i>Elektron manzil:</i>	selhoz@stat.uz
<b>Aloqa bog'lash uchun shaxs <u>2</u></b>	
<i>F.I.O.:</i>	Yakubov Xamza
<i>Lavozim:</i>	Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
<i>Bo'linma:</i>	Qishloq xo'jaligi va ekologiya
<i>Bo'lim:</i>	Qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlar bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni shakllantirish bo'limi
<i>Departament:</i>	Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi
<i>Idora:</i>	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
<i>Manzil (1 satr):</i>	
<i>Manzil (2 satr):</i>	
<i>Shahar/region:</i>	Toshkent shahri
<i>Mamlakat:</i>	O'zbekiston Respublikasi
<i>Pochta indeksi:</i>	
<i>Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam</i>	998 71 230-81-11
<i>Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam</i>	998 71 230-81-12
<i>Elektron manzil:</i>	selhoz@stat.uz
<b>Aloqa bog'lash uchun shaxs <u>3</u></b>	
<i>F.I.O.:</i>	
<i>Lavozim:</i>	
<i>Bo'linma:</i>	
<i>Bo'lim:</i>	
<i>Departament:</i>	

*Idora:*

*Manzil (1 satr):*

*Manzil ( 2 satr):*

*Shahar/region:*

*Mamlakat:*

*Pochta indeksi:*